

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Mamatov Axmetjon Atajanovich
Toshkent moliya instituti professori



Allaberganov Zakir Gayibovich
Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: maqolada shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligi mohiyati va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar tadqiq etilgan. Shu bilan birga, tizimlashtirilgan davlatning ijtimoiy siyosati, aholini daromadlar bo'yicha tabaqlanishi kabi omillarning ta'sirini tahlil etish asosida shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tranzitiv iqtisodiyot, ijtimoiy soha, shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligi, tahdid, obyekt va subyekt, aholi daromadlari, differensatsiya koefitsiyenti, inson kapitali, yollanma mehnat, ishsizlik, transfert daromadlari.

Аннотация: В статье рассматривается природа экономической безопасности человека, а также внутренние и внешние угрозы, затрагивающие ее. При этом на основе анализа влияния таких факторов, как социальная политика систематизированного государства, доходное расслоение населения, были разработаны предложения и рекомендации по разработке стратегии обеспечения экономической безопасности личности.

Ключевые слова: транзитивная экономика, социальная сфера, экономическая безопасность личности, угроза, объект и субъект, доходы населения, коэффициент дифференциации, человеческий капитал, наемный труд, безработица, трансфертный доход.

Abstract: The article examines the nature of economic security of a person and the internal and external threats affecting it. At the same time, based on the analysis of the influence of such factors as the social policy of the systematized state, income stratification of the population, suggestions and recommendations were developed for the development of a strategy for ensuring the economic security of the individual.

Key words: transitive economy, social sphere, economic security of the individual, threat, object and subject, income of the population, differentiation coefficient, human capital, hired labor, unemployment, transfer income.



KIRISH

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat" bobida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy sohadagi muammolar: aholini va ayniqsa, unda yoshlarni bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarzi, jismoniy trabiya va sport, ta'lif va tarbiya, ilm-fan va innovatsion taraqqiyot va aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirishda mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu haqda "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitusiyaning va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligidiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur"^[1].

Shaxs bir paytning o'zida xavfsizlik sohasining obyekti ham subyekti bo'lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mavjud bo'ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Insonlar, ularning hayotiy qiziqishlari va ehtiyojlari, jamoalar va ular o'rtafigi o'zaro munosabatlar, ijtimoiylashuv tizimlari (ta'lif, tarbiya, madaniyat, kundalik hayot) va insonning hayotiy faoliyatini ta'minlash tizimlari (sog'liqni saqlash, savdo, ta'minot) shaxsning iqtisodiy xavfsizlikning obyekti sanaladi. Ushbu sohalardagi muammolar mamlakat taraqqiyotiga tahdid bo'lib, muammolarni samarali yechimi, mamlakatda shaxsning iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanganligini va bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanganligini ifoda etadi. Bu mamlakatimizda shaxsning iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatmoqda.

METODOLOGIYASI

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariyasi va uslubiyatini tadqiq etgan xorijilik olimlar qatorida B.G.Klayner, G.A.Saymon, G.Xaken U.B.Artur R. Mayerson, E.Maskin, Y.A.Shumpeter, A.Yu.Chalenko N.Luman, Dj.R. Kommons, K.Maynser, L.Gurvis, E.Morena, K.E.Shennon kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan L.I.Abalkin, V.L.Beresnev, A.D.Burikin, O.B.Damaskin, O.A.Stepanova, V.V.Chernova, M.A.Kotelnikova, S.A.Glotov, Ye.S.Mityakova, Ye.A.Oleynikov, V.S.Pankov, V. K.Senchagov, A.I.Tatarkin, D.V. Tretyakov va boshqalar ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekiston Respublikasida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional asoslarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini respublikamiz olimlaridan Abulqosimov X.P., Rasulev T.S., Asatullayev X.S, Mamatov A.A., Jo'rayev T.T., Abulqosimov M.X. O'Imasov A. Vaxobov A.V., Tursunov B.O. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingen va institutsional jihatdan qayd etilgan, chunki uzoq vaqt davomida davlat suveren huquqlarning yagona egasi sifatida qabul qilingan edi. 1934 yil iyun oyida AQSH Prezidenti F. D. Ruzvelt dunyoda birinchi marta "Iqtisodiy xavfsizlik qo'mitasini tashkil etdi"^[2].

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional nazariyasi asoschisi Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlab unga ko'ra "evolyutsion" tushunchasi "institutsional" tushunchasi bilan mazmun va ma'nosi bir xil bo'ladi deb ta'kidlaydi^[3].

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarning keng qamrovli sinififikatsiyasini rus olimlari Stepanova O.A., Chernova V.V., Kotelnikova M.A. tomonidan ishlab chiqilgan^[4]. Glotov S. A. "Ijtimoiy xavfsizlik deganda shaxsni ijtimoiy himoyalanganlik ijtimoiy guruhning uning ijtimoiy huquq va erkinliklari sohasidagi hayotiy manfaatlarini tahdidlaridan: yashash, mehnat qilish huquqi va undagi ish xaqi, bepul va arzon ta'lif, davolanish, dam olish, kafolatlangan ijtimoiy himoyaii davlat tomoni ta'minlanganlik holati tushuniladi^[5]. deb baho bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar X.S. Asatullayev., A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayevlar . "Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, inson manfaatlari va ehtiyojlari qondirilishining turli xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy barqarorlik, ta'lif va sog'liqni saqlash xizmatlaridan erkin foydalana olish imkoniyatlarining ta'min etilishi, fuqarolarning qonuniy haq-huquqlarini kafolatlanganligi sifatida tushunishimiz mumkin" deb baho berishgan^[6]. Yosh tadqiqotchi olim Abulqosimov M.X. shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni ichki va tashqi tahdidlarga guruhlab tadqiq etgan^[7].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlar qatoriga aholining turmush darjasini va sifatini oshirish, qashshoqlikka barham berish, aholi daromadlarini ko'paytirish, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash, nogironlar va kam ta'minlangan fuqarolar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish kabilarni tadqiq etish va ularning mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirining nazariy va metodologik asoslari ochib berish muhim axamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral metodologiya va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahonda iqtisodiy rivojlanish muammolari hamda jahon iqtisodiyotining beqarorlashuvi tufayli iqtisodiy subyektlar manfaatlaridagi qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi yuzaga kelmoqda. Buning natijasida jamiyatda aholi tabaqalanishining kuchayishi, ijtimoiy sohaga yuklatilgan yuklamaning davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishiga bo'lgan e'tiborni ortishi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning beqarorlashishi, yuz berayotgan yangi jarayonlar bilan oldingi tizim ta'sirini to'qnashuvi natijasida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini pasayishiga olib kelmoqda. Bu iqtisodiy subyektlarning faoliyatiga e'tiborning dolzarbligini kuchayishi iqtisodiyotning tranzitiv turi bilan tavsiflaydi.

Rivojlanishning tranzitivligi mamlakatning turmush faoliyatini ta'minlash yalpi tamoyillarini amalga oshirish yondashuvlarini va qoidalarini majmuali o'zgartiradi, bu esa yangi iqtisodiy imkoniyatlarning vujudga kelishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faollashuviga, ularning salohiyati va imkoniyatlardan foydalanishda ko'vari-antlikga va subyektlarning iqtisodiy barqarorligini o'sishiga olib keladi. Biroq transformatsiya jarayonida iqtisodiy salohiyatning ba'zis asoslarini shakllantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy ta'minot sohasida buzilishlar, tartibsizliklar ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy kafolatlar tizimini buzilishi va yangi iqtisodiy tizimni shakllantirish sur'atlarining pasayishi ijtimoiy himoya mexanizmlarining qisqarishiga turki beradi. Shakllanayotgan yangi tizim o'z-o'zini moslashtirish imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish sharoitida davlat tomonidan minimal darajada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, uning natijasida ijtimoiy jarayonlarni qayta qurish va bu jarayonlarni tartibga soluvchi davlatning rolini aniqlamasdan turib iqtisodiyotni isloq qilish mumkin emas.

Martins-da-Roja va Vaylakisga [8] ko'ra, asosiy endogen tranzaksiyalar, hatto moliyaviy kabi an'anavyi bozorlarda ham axborotni qidirish, tashish, saqlash va o'lichashni o'z ichiga olgan jarayondir. Binobarin, iste'mol-chining bozor konyukturna axborotlarini olish xarajatlari uning tranzaksiya xarajatlari hisoblanadi. Bundan tash-qari, tranzaksiya xarajatlari sotuvchilarini topish, opportunizmdan himoya qilish va boshqalar ham kiradi. Tranzaksiya xarajatlari kamaytirish iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatini tenglashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuv nuqtayi hazaridan mahsulotning nafliligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, uning qiymatiga ta'sir qiladi, bu esa reklama bilan bog'liq bo'lgan tranzaksiya xarajatlarining yuqori ulushiga ega ixtisoslashgan ishlab chiqaruvchilarda yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni belgilaydi. Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi iqtisodiyotning institutsionalashuvining kuchayishiga olib keladi, bu esa muqobil institutlarning shakllanishi va faoliyatining ijtimoiy xarajatlarini tartibga soluvchi davlat siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy soha nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim o'r'in tutadi, zero, ijtimoiy soha orqali shaxs, oila va shu bilan bir qatorda alohida ijtimoiy guruhlar hamda yaxlit tarzda jamiyatning manfaatlari va ehtiyojlari qondiriladi. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bu ijtimoiy sohada takror ishlab chiqarishni rivojlanishi unda ijtimoiy xavfsizlikning maqbul darajasiga va tafsifiga erishish, jamiyatda mavjud konstitutsion tizimni, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar majmuidir [9]. Davlatining ijtimoiy siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi tizim faoliyatini transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtiruvchi tizim bo'lib hisoblanadi. Aynan shu joyda shaxs va davlat, shaxs va korxonalar o'rtasidagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning mustahkamligi va o'zaro hamohangligi jiddiy sinovdan o'tadi. Biroq iqtisodiy islohotlar natijasi ko'pincha aholining turmush sharoitini yomonlashuvi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining beqarorligi bo'lib, bu insonlar ongida qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy himoyasizlik kabi salbiy jarayonlar ko'laming kengayishiga sabab bo'lmoqda. Kam sonli boylar va kam ta'minlangan fuqarolar sonining ko'pligini ifoda etuvchi jamiyatning mulkiy jihatdan tabaqalanishi ijtimoiy sohada mamlakatning xavfsizligiga katta tahdid tug'diradi [10].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan ijtimoiy tahdidlarni beshta katta blok asosida tizimlashtirish mumkin: aholining pul daromadlari darajasi bilan bog'liq tahdidlar; demografik vaziyat bilan bog'liq tahdidlar; bandlik sohasidagi tahdidlar, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan holdarda; ijtimoiy nafaqalar miqdori va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralar bilan bog'liq tahdidlar; sog'liqi saqlash, ta'lif, madaniyat va kommunal sohada yuzaga keladigan jarayonlar tufayli kelib chiqadigan tahdidlar. Tahdid – bu bevosita xavf-xatar bo'lib uning manbayi ko'proq yoki kamroq darajada aniqlangan bo'lishi mumkin. Tahdid kimga qarshi yo'naltirilgan bo'lsa, shularning unga tez munosabat bildirishini talab qiladi.



Shaxs bir paytning o'zida xavfsizlik sohasining ham obyekti ham subyekti bo'lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mayjud bo'ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlikning barcha bosqichlarida muhim o'rinn tutadi, ammo shuni ta'kidlash lozimki, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi o'z navbatida jamiyat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat va ekologik vaziyatga chambarchas bog'liqdir.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari mutanosibligiga rioxalish;
- xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro mas'uliyatli bo'lishi;
- xalqaro xavfsizlik tizimlari bilan integratsiyalashuv.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlarining aholining 10%li guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi [12]

No	Detsil guruhlari	Detsil guruhlari	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	1 detsil	1 detsil	3,9	3,9	3,7	3,4	3,3	3,5
2.	2 detsil	2 detsil	5,5	5,4	5,3	5,1	5,1	5,1
3.	3 detsil	3 detsil	6,4	6,4	6,4	6,2	6,2	6,1
4.	4 detsil	4 detsil	7,2	7,3	7,3	7,1	7,2	7,0
5.	5 detsil	5 detsil	8,1	8,1	8,2	8,1	8,2	7,9
6.	6 detsil	6 detsil	9,1	9,1	9,2	9,1	9,3	8,9
7.	7 detsil	7 detsil	10,2	10,3	10,5	10,5	10,6	10,2
8.	8 detsil	8 detsil	11,6	11,7	12,1	12,1	12,5	11,9
9.	9 detsil	9 detsil	13,9	14,1	14,7	14,8	15,2	14,7
10.	10 detsil	10 detsil	24,1	23,7	22,6	23,5	22,5	24,8
11.	Aholi daromadlar	Aholi daromadlar	6,2	6,1	6,0	6,9	6,8	7,0

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishi, daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulkka uy-joy, ko'chmas mulk, aksiya (va boshqalar)ga ega bo'lish omili o'ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o'n baravar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy qatlama shakllanadi [11]. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan oilalarning to'plagan mol-mulki meros qoldirilishi sababli daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro'y beradi. Bu jarayon quyidagi jadvalda ifoda etilgan (qarang 1-jadval). O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlarining 10%li guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilga kelib O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining 10%li guruhlar bo'yicha differensatsiya koeffitsiyenti 6,2 dan 7,0 gacha o'sganligini kuzatish mumkin.

Ijtimoiy tengsizlik va daromadlar taqsimotidagiadolatsizlik aholining kam ta'minlangan qatlaming noroziligini o'sishiga va jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni kuchayishiga olib keladi. Aholining daromadlar bo'yicha tabaqalashuvining me'yorida saqlab turilishi ijtimoiy hamjihatlikni kafolatlaydi. Ijtimoiy barqarorlik kambag'allar sonining qisqarib borishi bilan ham bog'liq [13]. Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlarini taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to'lovlarini eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va tengsizlikni yumshatishning eng muhim instrumenti hisoblanadi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligining asosiy mezonlardan biri bu turmush darajasi ko'rsatkichi bo'lib, u shaxsning munosib turmush darajasini ifoda etuvchi moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va millat salomatligi ko'rsatkichini o'z ichiga oladi hamda ijtimoiy harakatchanlik, axborot bilan ta'minlanganlik darajasi va jamiyat hayotiga integratsiyalashuvi va boshqa ko'rsatkichlarni xam o'z tarkibiga oladi. Biroq insonning imkoniyatlarini faollashtiradigan, tanlash istiqbollarini kengaytiradigan, shaxsiy boyligini mutlaqlashtirishning qo'llanilmaslik muhim ekanligini hisobga olish kerak. Boshqa tomonidan, inson rivojlanishining integral darajasi bevosita moddiy turmush darajasi ko'rsatkichiga bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkich davlatning iqtisodiy rivojlanshining ma'lum taraqqiyotida asosiy ko'rsatkichlar qatoriga kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi aholi jon boshiga YAIM qiymatini aholi turmush darajasini aks ettiruvchi miqdor ko'rsatkich sifatida qabul qilingan. Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va aholi turmush farovonligi darajasini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi



ko'rsatkichning o'sishi bilan milliy iqtisodiyotning o'sishini aks ettiradi va u pasaygan taqdirda boshqa davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasiga nisbatan iqtisodiy rivojlanish muammolari va beqaror rivojlanishini ifoda etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OYECD) tomonidan kambag'allik darajasiga nisbatan mezonlar tavsya etilgan. Jumladan, kambag'allik darajasi – bu ma'lum yoshdagi aholi guruhi daromadlari, uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadining yarmidan kam bo'lgan chegaradan past bo'lishi bilan izohlanadi. Qashshoqlik, ayniqsa, iqtisodiyotning davlat sektorida, qishloq joylarda va kichik shaharlarda, ko'p bolali va to'liq bo'lmagan oilalarda band bo'lgan fuqarolarga xosdir. Kambag'allik nafaqat iste'mol qilinadigan iste'molning past darajasi, balki umuman past darajadagi mulk, ayniqsa uy-joy, odamlarning ta'minoti bilan bog'liqdir. Kambag'allik darajasiga nafaqat obyektiv omillar, balki subyektiv omillar ham ta'sir ko'rsatmoqda: sog'liqning yomonligi, ma'lumotning yetishmasligi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikning pastligi, oilaviy xayotning past sifati, ijtimoiy patologiyalar va boshqalar.

Milliy ijtimoiy xavfsizlik darajasi ko'pincha "davlatda ijtimoiy tinchlik va ijtimoiy-siyosiy osoyishtalikni ta'minlaydigan aholi uchun maqbul turmush darjasasi" shaklida o'rnatalidi. An'anaga ko'ra, shaxsnинг iqtisodiy xavfsizlik darajasi aholining asosiy guruhlarini moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanishini ifoda etuvchi, ruxsat etilgan chegaraviy qiymat ko'rsatkichlar bilan tafsiflanadi. Chegaraviy qiymat ko'rsatkichlar parametrlarining yanada pasayishi aholining mehnat qobiliyatini pasayishi bilan bog'liq tahdidlarini shakllantiradi, shuningdek, nazorat etib bo'lmaydigan ijtimoiy nizolar ehtimolini keltirib chiqaradi.

Shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni ichki va tashqi tahdidlar sifatida tizimlashtirish mumkin. Shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o'zgarishlar, bozor konyunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va inflatsiya darajasining boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi, hududlar rivojlanishi-dagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadagi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi, tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar hamda jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar, mamlakat tashqi qarzining haddan tashqari o'sib ketishi sababli ham vujudga kelishi mumkin.

Iqtisodiy sohada inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o'z ifodasini topadi. Shaxsnинг xavfsizligiga nisbatan jinoiy mazmunga ega tahidlar mamlakatda kriminalashuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi orqali vujudga keladi.

Shaxsnинг o'ziga bog'liq bo'lgan tahidlar ichki tahidlar hisoblanadi. Bu turdag'i tahidlarga shaxsnинг o'z oldiga noto'g'ri maqsadlar qo'yanligi; bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yo'qligi; kam haq to'lanadigan ishlarda ishlashi; raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo'lishi; daromadi kam bo'la turib bolalari ko'p bo'lishi; tug'ma nogironlik; insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi; qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik va butunlay yo'qotganligi; boquvchisidan ayilib qolishi; insonning qat'iyatsizlik, sabrsizlik, jizzakilik, shoshqaloqlik, chidamsizlik, danganosalik, passivlik va boshqa shu kabi shaxsiy xususiyatlari; insonning yomon xulq va odatlar (axloqsizlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik va nosog'lom hayot tarzi)ga moyillik; omadsizlik kiradi.

Shaxsnинг iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantirishda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o'rindan, shu bois shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mamlakatning ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalariga katta urg'u beriladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida aholini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat iqtisodiy siyosati o'z-o'zini band qilish tizimini yaratish orqali daromadlarni ko'paytirish va qarorlar qabul qilishda mustaqillikni amalga oshirish bo'yicha iqtisodiy subyektlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan jihatlari shakllantirilmoxqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligi, masalan, ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolar tomonidan kichik korxonalar tashkil etish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish orqali yangi ish o'rnlari tashkil etish, kreativlikni rivojlantirish, turmush forovonligini oshirishning yangi jihatlarini aniqlash bizga iqtisodiy nofaol ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar sonini kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Birinchidan, kambag'allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandard usullarni joriy etamiz. Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag'allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suv, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak" [14] deb ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4498-sonli qarori bilan hunarmandchilik, ayollarni qo'llab-quvvatlash va oilalarni mustahkamlash; "Yoshlar – bizning kelajagimiz" dasturi; dehqon va dehqon xo'jaliklari faoliyatini yaxshilash; har bir oila bu – tadbirkor dastur; aholi bandligini ta'minlash maqsadida kichik biznes subektlariga imtiyozli 15 foizli kreditlar berilishi yo'nga qo'yildi.



Jahon banki “kambag‘allikning xalqaro ko‘rsatkichi” tushunchasini kiritib, daromadlar bo‘yicha kambag‘allik tasnifini kirdi. Bunda asosiy yondashuv barcha davlatlar uchun bir xil bo‘lib, fuqarolarning daromad darajasi to‘rt guruhga ajratilgan holda tavsiflanadi. Ya’ni: kam daromadli mamlakatlar bunda: yiliga bir kishiga 1035 dollar yoki undan kam; past-o‘rtalar daromadga ega bo‘lganlar yiliga 1036-4045 dollarni tashkil etadi; o‘rtalar yuqori daromadga ega bo‘lganlar, bunda daromad miqdori yiliga 4046-12535 dollarga teng; yuqori daromadga ega bo‘lganlar ya’ni yiliga 12 536 dollar yoki undan ko‘p topadiganlar kiritiladi. O‘rtacha past daromadli mamlakatlarga, jumladan, O‘zbekiston uchun kambag‘allik chegarasi bir kishiga kuniga 3,2 AQSH dollariga, yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlar uchun esa kuniga bir kishi uchun 5,50 AQSH dollarini teng deb e’tirof etilgan [15].

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiylarining daromadlarining shakllanishiga ko‘ra tarkibi (%) da

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ko‘rsatkichlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Umumiylar- jami, shu jumladan:	76,2	77,5	76,2	75,4	73,6	70,2
birlamchi daromadlar	71,0	74,6	73,5	73,3	71,5	67,9
ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	68,8	66,7	66,1	65,9	65,0	61,6
mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	34,3	24,8	27,2	27,3	27,5	28,3
yollanma ishchilarining daromadlari	34,5	41,9	39,0	38,6	37,4	33,3
mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar	2,2	7,9	7,4	7,4	6,5	6,3
shaxsiy iste’mol uchun o‘ziga ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	4,2	2,9	2,7	2,1	2,2	2,3
mol-mulkdan olingan daromadlar	24,8	22,5	23,8	24,6	26,4	29,8
transfertlardan daromadlar	64,3	64,2	61,8	60,3	60,1	59,4

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon bankining texnik yordamida minimal iste’mol xarajatlari qiymatini aniqlashdi va u bir shaxsga oyiga 498 so‘mni tashkil qilmoqda [16]. Agarda kambag‘al shaxsning kunlik iste’mol qilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi 1,90 dollarga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, unda ushbu shaxs bir oyda 30 kunda 646,4 so‘mlik tovarlar va xizmatlar iste’mol qilishi kerak, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hisoblagan 498 so‘m emas.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiylarining shakllanishiga ko‘ra tarkibi tahibili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi olti yilda mehnat faoliyatidan olingan daromad 68,8 %dan 61,65gacha o‘zgargan. Bu tadqiq etilayotgan davrda aholining transfertlardan olingan daromadlarini 24,8%dan 29,8%ga o‘sishi hisobiga yuz bergen. Tadqiq etilayotgan davrda mehnat faoliyatidan olingan daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadini 34,5%dan 28,3%ga pasayganini va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o’sganligini kuzatish mumkin. Bu davlatning aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo’llab-quvatlash va kambag‘allikni kamaytirish va aholini tadbirkorlik faolligini oshirish bo‘yicha olib borgan chora-tadbirlari natijasi sifatida hamda 2022-yilga kelib birlamchi daromadlar – 70,2 %, o‘z-o‘zini band qilishdan daromad 33,3% ni tashkil qilib, mazkur ko‘rsatkichlar mehnat munosabatlari sohasidagi olib borilayotgan o‘zgarishlar natijasida deb hisoblash mumkin.

2022-yilga kelib aholi umumiylarining katta qismi yollanma ishchilarining daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiylarining 61,6 % i) shakllandi hamda nominal o‘sish sur’ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Aholi umumiylarining daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,3 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 2,3 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 29,8 % ni tashkil qildi. Tadqiq etilayotgan davrda kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushining o‘sishi esa mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o‘rnirlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omili sifatida kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy kafolatlar yaratilganligidan deb baholash mumkin. Aholining kambag‘al toifasi tezkor iqtisodiy o‘sishdan foyda ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtiroy etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo’sha olmaydi. Bu aholining kambag‘al toifasining miqdorini o‘sishi mamlakatda iqtisodiy o‘sishga katta tahdid sifatida baholash mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy adabiyotlarda shaxsning iqtisodiy xavfsizligi deganda “shaxsning manfaatlarini huquqiy va iqtisodiy himoya qilishni ta'minlovchi turmush faoliyati holati” tushuniladi deb baho berilgan [17]. Respublikamizda chop etilgan boshqa bir iqtisodiy adabiyotda “Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nafaqat davlat boshqaruvi organlari, xukumat, fuqorolik jamiyati institutlari, jamoat va nodavlat tashkilotlarining birgalikdagi sa'y-haraktlarigigagina, balki xar bir fuqoroning o'ziga xam bog'liqdir deb ta'kidlab o'tilgan [18]. Bizning fikrimizcha, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi bu – aholining moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarini qondirilishini belgilab beruvchi daromadlari va mulkiy salohiyati bo'lib, bu salohiyatning uzoq muddat davomida ta'minlanishini kafolatlaydi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, inson manfaatlari va ehtiyojlari qondirilishining turli xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy barqarorlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan erkin foydalana olish imkoniyatlarining ta'min etilishi, fuqarolarning qonuniyi haq-huquqlarini kafolatlanganligi sifatida tushunishimiz mumkin.

Tranzativ iqtisodiyot sharoitida shaxslarning iqtisodiy xavfsizligini shakllantirish faqat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalarini baholash bilan murakkablashadi va iqtisodiy agentlarni bir tomonlama o'rganish va uning alohida guruhlar muammolarini hal qilish, bu maqsadni amalga oshirishga imkon bermaydi. Umummilliy rivojlanish yo'lidagi milliy to'siqlarni va ularning oqibatlarini emas, balki muammolar manbasini hal etish yo'llarini ko'rib chiqish zarurligi shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishni dolzarblashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 21.12. 2022 йил.
- Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.
- Квашицкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашицкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. - 2-е изд. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
- Степанова О.А., Чернова В.В., Котельникова М.А. Целевая функция т угрозы экономической безопасности личности// Социально-экономическое явления и процессы. Т.10.№2 2015-С.88.
- Глотов С. А. Социальная безопасность: теоретико-правовой аспект / С. А. Глотов // Фундаментальные и прикладные исследования кооперативного сектора экономики. 2012. № 4. С. 119 – 122.
- Асатуллаев Х.С., Маматов А.А., Жўраев Т.Т.. Иқтисодий хавфсизлик (Дарслик). –Т.: “ТМИ нашриёти”, 2023. Б.124.
- Абулқосимов М.Х. Шахс иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар ва уларни олдини олиш йўллари. // “Иқтисод ва молия” журнали. 2017. №12 сон. -Б. 21.
- Martins-da-Rocha V. F., Vailakis Y. Financial Markets with Endogenous Transaction Costs / V. F. Martins-da-Rocha, Y. Vailakis // Economic Theory. – 2010. – Vol. 45. – P. 65–97.
- Турсунов Б.О. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-матба уйи” 2021 йил. –Б.432.
- Абулқосимов Х., Абулқосимов М. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт” Т. 2019 йил “Ноширлик ёғдуси” нашриёти. –Б.78.
- Жўраев Т.Т.. Иқтисодиёт назарияси. (Ўқув қўлланма). –Т.: “Fan va texnologiya”, 2017, -Б.621.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
- Қобилов Ш.Р. Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг илмий-назарий асосларини такомиллаштириш: Монография.-Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2017 й.-Б. 208.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабр//Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабр.
- Санақурова Б.Р., Қаюмов С.А Камбағаллик даражасини аниқлаш ва уни пасайтириш. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. № 3, июнь, 2021 йил. ISSN: 2181-1016.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 августдаги №544 сон. “Минимал истеъмол харажатлари қийматини аниқлаш тартибини амалиётга жорий этиш тӯғрисида”ги қарори.
- Теория переходной экономики: учеб.пособие / под ред. И. П. Николаевой. – М.: ЮНИТИ: Изд-во полит.лит. “Единство”, 2001. – 487 с.
- Турсунов Б.О. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма.-Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матба уйи, 2021 .-Б.99.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

